

## ONA TILI DARSLARIDA HIKMATLI SO`ZLARDAN FOYDALANISH

Ona tili o`qitish metodikasi XXI asrga kelib boy tajriba to`pladi. U pedagogika fanlari tizimidagi mustaqil fan sifatida shakllandi, rivojlandi, hozir ham rivojlanishda davom etmoqda. Uning mazmuni ona tili ta`limining izchil tizimini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil etishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o`rganishning interfaol metodlarini o`zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. O`zbek tili o`qitish metodikasi birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog`liqdir. Yaxshi bilamizki, til va nutq ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Shunga qaramay, ular ayni bir xil hodisa emas. Ular nutqiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Insonning nutqiy faoliyati zimmasiga orilgan vazifalar nihoyatda ko`p. Shulardan biri hikmatli so`zlardan darslarda foydalanish. Mavzu talabiga mos hikmatlar topish, hikmatli so`zlarni ajoyib tarzda davom ettirish, anogramma o`yini orqali hikmatlarni tiklash darslarning mazmundorligini oshiradi. Aynan shu ta`limi tizimi orqali topshiriqni bajarish jarayoni sub`yekt uchun nimadir yaratish, iqtidorini ongli ravishda ijodiy fikrlashi orqali namoyon qilishga undaydi. Bizga ma`lumki, ijodiylik ikki guruhga bo`linadi:

- a) ilmiy ijodiylik;
- b) badiiy ijodiylik.

O`quvchining ilmiy ijodiyligi uning til hodisalarini o`rganishi natijasidagi chiqaradigan xulosalari, badiiy ijodiyligi moddiy borliqdagi narsa voqea-hodisalarni badiiy did bilan tasvirlashda namoyon bo`ladi. O`qituvchi ijodiylikni muhim ahamiyatga ega ekanligini, ijod ahlining bog`i doim ko`karib turishini ta`kidlab turmog`i darkor. Siz bilan ko`rib chiqadigan ijodiylik – badiiy ijodiylik. Yuqorida sanab o`tilgan bosqichlarga qaytadigan bo`lsak, o`qituvchi „Hikmatli anogramma o`yini”ni quyidagicha tashkil etishi mumkin:

„Bering tabiatini e`tibor bo`lsangiz biror bilmoqchi do`stlariga inson”, „Chin va bir-biridan do`stlikdir so`z bir samimiy olish zavqlana demasdan” so`zlari o`quvchilar e`tiboriga havola etiladi. O`quvchilar so`zlarni joy-joyiga qo`yish orqali gaplarni tiklaydilar va quyidagi hikmatli so`zlarni hosil qiladilar:

„ Biror inson tabiatini bilmoqchi bo`lsangiz, do`stlariga e`tibor bering ”.

„Bir so`z demasdan bir-biridan zavqlana olish samimiy va chin do`stlikdir”.

„Hikmatni davom ettir” o`yinida esa aforizmning birinchi qismi o`quvchilar hukmiga havola etiladi, so`ng ular hikmatli so`zni davom ettiradilar. Masalan:

„Baxtli va baxtsiz bo`lish kichik bir narsaga bog`liqdir, ...”

„Baxtli va baxtsiz bo`lish kichik bir narsaga bog`liqdir, ya`ni fikrlash doirasiga”.

„Baxtli va baxtsiz bo`lish kichik bir narsaga bog`liqdir, ya`ni inson tabiatiga”.

„Chin do`st o`tmishingizni eslatadi, ...”

„Chin do`st o`tmishingizni eslatadi, kelajagingizni ko`rsata oladi”.

„Chin do`st o`tmishingizni eslatadi, yordam qo`lini doim cho`zib, hayotda senga yelkadosh bo`lish uchun jonini ayamaydi”.

Ona tili darsliklaridagi „Uyga vazifa” ruknida turli xil matnlar tuzish topshiriqlari berilgan. O`quvchilar turli mavzulardagi matnlardan tashqari, shu matnlar mavzulariga mos hikmatlar yarata oladilar, faqat to`g`ri yo`nalish berilsa kifoya qiladi. Quyida sizlarga o`quvchilarning mustaqil yaratgan hikmatlaridan namunalar keltiramiz:

- Odamiylik – mehr-oqibat g`unchasi, qalb gulshanining oshiq bulbuli.
- Oqar suv toshlarga urilmasligini qanchalar orzu qilmasin, bari bir ziddiyatlarga duch kelaveradi.
- G`azabdan o`zini asramagan inson ezgu maqsadlarini amalga oshira olmaydi.
- Umrimiz davomida bu boshimizga qanday savdolar tushmaydi deysiz, lekin haqiqatni aytishga bari bir iymanamiz.
- Asab- sinovchi shamol, u bir zumda esadi-yu, o`zidan nima qoldirganini ko`rib xijolat chekadi.

Shunday hikmatli so`zlarni o`quvchi yaratar ekan, uning so`z boyligi, uning ma`no nozikliklari oshib, farqi va o`xshashliklarini his qilish hamda anglab yetish, bexato yozish, so`zlarni to`g`ri bog`lash, fikrni gap tarzida to`g`ri ifodalash ko`nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga ana shu hikmatlarni o`tilgan mavzuga qarab morfologik yoki sintaktik tahlil qilinsa, (yoki AKT vositalaridan foydalanib proyektor orqali ko`rsatilsa) maqsadga muvofiq bo`ladi. Bunday yondashuvning mohiyati shundaki, nazariy tushunchalar shunday mashqlar jarayonidagina faol o`zlashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ta`limning rivojida bunday yondashuvlar o`quvchi shaxsini rivojlantirishga, badiiylilikni oshirishga, tilshunoslik materiallarini puxta o`zlashtirishga zamin hozirlaydi.

Zeboxon Saidahmedova,  
Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san`at  
akademik litseyining ona tili va adabiyot o`qituvchisi